

ARAB TILI GRAMMATIKASINI O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Umaraliyeva Mushtaribonu

Diplomat university

Filologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada arab tili grammatikasini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Grammatik bilimlarni faqat nazariy emas, balki nutq faoliyati orqali o‘zlashtirish masalasi yoritilgan. Kommunikativ yondashuv asosida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, grammatik kompetensiyasini mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu yondashuvning samarali tomonlari va amaliy tavsiyalari yuzasidan ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: arab tili, grammatika, kommunikativ yondashuv, til o‘qitish metodikasi, nutq ko‘nikmalari, grammatik kompetensiya, zamonaviy ta’lim.

Bugungi kunda chet tillarini o‘rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy muvaffaqiyat uchun ham muhim omillardan biriga aylandi. Ayniqsa, arab tili diniy manbalarni tushunish, ilmiy izlanishlar olib borish hamda Sharq madaniyatini chuqurroq anglashda alohida o‘rin tutadi. Shu sababli arab tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim jarayonida grammatika ko‘proq nazariy tarzda, qoidalarni yodlash va yozma mashqlar orqali o‘rgatilgan. Bunday yondashuv o‘quvchilarda grammatik bilimlar shakllanishiga xizmat qilgan bo‘lsa-da, ularning erkin muloqot qilish, fikrni ravon ifodalash ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmadi. Natijada ko‘plab o‘rganuvchilar grammatik qoidalarni bilsalar ham, ularni real nutq

vaziyatlarida qo'llashda qiynalmoqdalar. Zamonaviy til o'qitish nazariyasi¹⁴⁵da esa til, avvalo, muloqot vositasi sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, kommunikativ yondashuv tilni o'rganish jarayonida muhim metodik asosga aylandi. Bu yondashuv o'quvchini dars markaziga qo'yadi, uni faollikka undaydi va tilni tabiiy muloqot jarayoni orqali o'zlashtirishga yo'naltiradi. Kommunikativ yondashuv nafaqat lug'at boyligini oshiradi, balki grammatik strukturalarni ongli va maqsadli ravishda qo'llash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Mazkur maqolaning maqsadi arab tili grammatikasini o'qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlarini yoritish, ushbu usulning afzalliklarini ko'rsatish hamda uni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Arab tili dunyodagi eng murakkab grammatik tizimga ega tillardan biri hisoblanadi. Uning morfologik va sintaktik tuzilishi boshqa ko'plab tillardan sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli arab tili grammatikasini o'qitish jarayonida o'qituvchilar doimo samarali metodlarni izlab kelganlar. An'anaviy o'qitish tizimida grammatika, asosan, qoidalarni tushuntirish, misollar keltirish va mashqlar orqali mustahkamlashga asoslangan. O'quvchilar fe'l zamonlari, so'z turkumlari, jins va son kategoriyalari, i'rob qoidalarini ko'proq nazariy jihatdan o'rganadilar. Bunday yondashuv grammatik tuzilm¹⁴⁶ani tushunishga yordam bergan bo'lsa-da, talabalarning real muloqot jarayonida ushbu bilimlarni qo'llash imkoniyatini cheklab qo'ygan. Ko'plab hollarda o'quvchilar grammatik qoidalarni yodlab olsalar ham, ularni erkin nutqda ishlata olmaydilar. Bu holat grammatik bilim bilan kommunikativ ko'nikma o'rtasida tafovut mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun zamonaviy metodika fanida bu muammoni hal qilish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqila boshladi. Kommunikativ yondashuv tilni o'rganishda asosiy maqsad sifatida muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishni belgilaydi. Ushbu yondashuv XX asr oxirlarida Yevropa tilshunosligida shakllanib, keyinchalik dunyo miqyosida keng tarqaldi. Bu yondashuvga ko'ra, til faqat grammatik qoidalar majmuasi emas,

¹⁴⁵ https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13618_1_3832A559BDC9D2949A9A0AEEAA603BDAEBE27A15.pdf

¹⁴⁶ <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/grammatika-grammatik-ma-no-va-grammatik-shakl-grammatik-kategoriya>

balki tirik muloqot vositasidir. Shuning uchun o'qitish jarayonida o'quvchilar sun'iy mashqlar emas, balki hayotga yaqin bo'lgan nutq vaziyatlarida ishtirok etishlari lozim. Arab tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Talabani faolligini oshirish;
2. Dialog va munozaralarga keng o'rin berish;
3. Rol o'yinlaridan foydalanish;
4. Vaziyatli mashqlar orqali grammatika o'rgatishdan iborat¹⁴⁷.

Bu usullar orqali o'quvchi grammatikani faqat qoida sifatida emas, balki muloqot jarayonida zarur vosita sifatida qabul qila boshlaydi. Grammatik kompetensiya – bu shaxsning grammatik tuzilmalarni to'g'ri tushunish va amalda qo'llash qobiliyatidir. Uni shakllantirishda kommunikativ mashqlar muhim o'rin tutadi. Masalan, fe'l zamonlarini o'rganishda an'anaviy uslubda faqat jadval to'ldirish mashqlari beriladi. Kommunikativ yondashuvda esa talabalar "Kecha nima qilding?", "Erta nima qilmoqchisan?" kabi savollar asosida bir-biri bilan suhbatlashadilar. Natijada fe'l zamonlari to'g'ridan-to'g'ri nutq jarayonida mustahkamlanadi. Xuddi shuningdek, ismlarning jins va son kategoriyalarini o'rganishda rasmlar, dialoglar va guruhli topshiriqlardan foydalanish yuqori samara beradi. O'quvchi ko'rib, aytib, eshitib va takrorlab o'rganadi. Bu esa grammatik bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishiga yordam beradi. Arab tili grammatikasini kommunikativ tarzda o'rgatishda dialoglar juda muhim hisoblanadi. Dialoglar real hayotiy vaziyatlarga asoslanib tuzilsa, talaba o'zini shu muhitda his qiladi va tilni faol ishlata boshlaydi. Masalan, "Do'konda savdo qilish", "Mehmonxonada suhbat", "Safarga tayyorgarlik" kabi mavzularda rol o'yinlar tashkil etiladi. Har bir talabaga ma'lum rol berilib, u o'sha rol asosida gapirishi talab etiladi. Bu esa grammatikani majburiy emas, tabiiy ravishda o'zlashtirishga xizmat qiladi. Rol o'yinlar o'quvchilarning nutqiy jasoratini ham oshiradi. Chunki ko'plab talabalar grammatik xato qilishdan qo'rqib gapirmay yuradilar. Kommunikativ

¹⁴⁷ <https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/515>

yondashuv esa ularni erkin gapirishga undaydi va xatoni rivojlanish bosqichi sifatida qabul qiladi¹⁴⁸.

Kommunikativ yondashuv asosida arab tili grammatikasini o'qitishda o'qituvchi markaziy figuradir. U faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki o'quv jarayonining tashkilotchisi va yo'naltiruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. O'qituvchining metodik mahorati talabalarning grammatik materialni qanday darajada o'zlashtirishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Arab tili murakkab fonetik, morfologik va sintaktik tizimga ega bo'lgani sababli o'qituvchi qoidalarni soddalashtirib, bosqichma-bosqich tushuntira olishi zarur. Har bir grammatik mavzu real nutqiy vaziyatlar bilan bog'lanishi, talabalarning kundalik hayotiga yaqin misollar orqali berilishi lozim. Shunda grammatika mavzulari sun'iy emas, balki tabiiy ravishda qabul qilinadi. O'qituvchining yana bir muhim vazifasi — dars jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratishdir. Talabalar xato qilishdan qo'rqmasligi, erkin fikr bildirish olishi va savol berishga jur'at topishi kerak. O'qituvchi xatoni jazolash emas, balki o'rganish imkoniyati sifatida ko'ra olishi lozim. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'qituvchi mahoratining ajralmas qismidir. Vizual materiallar, jadval, sxemalar, rolli kartochkalar va muammoli vaziyatlar orqali grammatika mavzularini tushuntirish o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.¹⁴⁹ Kommunikativ yondashuv arab tili grammatikasini o'qitishda ko'plab ustunliklarga ega bo'lib, u talabaning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, bu yondashuv tilni jonli aloqa vositasi sifatida o'rgatadi, natijada o'quvchi tilni "quruq fan" deb emas, balki real hayotda foydalaniladigan vosita sifatida qabul qiladi. Ushbu metod orqali grammatik bilimlar mustahkam va tizimli shakllanadi. Talabalar faqat qoidani emas, balki mazmunni anglaydilar. Masalan, ular fe'l zamonlarini yodlash emas, balki voqea va vaqt tushunchalarini til orqali ifodalashni o'rganadilar. Kommunikativ yondashuv, shuningdek, talabalar o'rtasida hamkorlik muhitini shakllantiradi.

¹⁴⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/arab-tilini-o-qitishdagi-zamonaviy-metodlar>

¹⁴⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/arab-tilini-o-qitishdagi-zamonaviy-metodlar%20virtual%20organish>

Guruhli ishlash, juftlikda dialog tuzish va jamoaviy muhokamalar orqali talabalar bir-biridan o'rganadilar. Bu esa tilni o'rganishda ijtimoiy faollikni oshiradi. Yana bir muhim jihat – bu yondashuv talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi. Qiziqarli mashg'ulotlar, rolli o'yinlar, muammoli savollar va hayotiy vaziyatlar darsning monoton bo'lib qolishining oldini oladi. Talabalar darsga faqat majburiyat emas, balki qiziqish bilan qatnasha boshlaydilar.

Kommunikativ yondashuvni arab tili grammatikasini o'qitish jarayoniga samarali tatbiq etish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu jarayon tasodifiy emas, balki oldindan puxta rejalashtirilgan bo'lishi lozim. Avvalo, dars rejasi grammatik mavzularni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash asosida tuzilishi kerak. Har bir grammatik qoida nutqiy vaziyat orqali tushuntirilsa, talabalar uni tezroq tushunadi. Masalan, fe'l zamonlarini o'rgatishda “o'tgan kun”, “bugungi reja” va “kelajakdagi maqsadlar” mavzularidan foydalanish mumkin. Ikkinchidan, mashg'ulotlar davomida talabalarga maksimal darajada gapirish imkoniyati berilishi zarur. Har bir talaba dars davomida kamida bir necha marotaba so'zlash imkoniga ega bo'lishi kerak. Bu uchun juftlik va kichik guruhlar bilan ishlash juda samarali hisoblanadi. Uchinchi muhim jihat — baholash tizimidir. Baholash faqat test va yozma nazorat bilangina emas, balki og'zaki nutq faolligi, dialoglarda ishtiroki va grammatikani amalda qo'llash darajasi asosida olib borilishi lozim. Shuningdek, mustaqil ta'limga alohida e'tibor qaratish kerak. Talabalarga uyga vazifa sifatida kichik matnlar tuzish, kundalik yozish yoki berilgan mavzu bo'yicha qisqa hikoya yozish topshiriqlari berilishi samarali natija beradi.

Arab tili grammatikasini kommunikativ yondashuv asosida o'qitishda muhim omillardan biri — bu o'quv jarayonida haqiqiy (tabiiy) arab tilida muloqot muhitini yaratish hisoblanadi. Bunda o'qituvchi faqat grammatik qoidalarini tushuntiribgina qolmay, balki dars davomida talabalarga oddiy savollar berib, ular bilan to'g'ridan-to'g'ri arab tilida suhbat olib boradi. Masalan, “هَلْ تُحِبُّ اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ؟” (Sen arab tilini yoqtirasanmi?), “مَاذَا فَعَلْتَ الْيَوْمَ؟” (Bugun nima qilding?) kabi sodda savollar orqali talaba tabiiy nutq jarayoniga jalb qilinadi. Bunday muloqotlar majburiy va sun'iy

mashq sifatida emas, balki oddiy kundalik suhbat shaklida tashkil etiladi. Talabalar o'z fikrlarini asta-sekin arab tilida ifoda eta boshlaydilar, xatodan qo'rqmasdan gapirishga o'rganadilar. Aynan mana shu jonli muloqot muhiti arab tilini "kitob tili" sifatida emas, balki tirik til sifatida his etishga yordam beradi. Bu esa grammatik bilimlarning real nutq bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi va arab tilini o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, arab tili grammatikasini o'qitishda kommunikativ yondashuv va kod almashinuvi masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy usul orqali grammatika qoidalarini yodlash va yozma mashqlar bilan mustahkamlash o'quvchilarning real muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda yetarli samara bermaydi. Shu sababli zamonaviy metodika arab tilini o'rganuvchilarda muloqotga yo'naltirilgan, interaktiv va kontekstual yondashuvni talab qiladi. Kommunikativ yondashuv o'quvchilarga grammatika va lug'atni faqat nazariy bilim sifatida emas, balki real nutq jarayonida qo'llash imkonini beradi. Dialoglar, rolli o'yinlar va guruh mashqlari orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalaydi, xatolardan qo'rqmay gaplashadi va tilni tabiiy ravishda o'zlashtiradi. Shu bilan birga, o'qituvchining metodik mahorati, ijobiy psixologik muhit yaratish va darslarni qiziqarli shaklda tashkil etish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, arab tilini tabiiy gapirishga o'rgatishda asl arab o'qituvchilarining ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Talabalar o'qituvchi bilan bevosita muloqot qilganda, ular tilni to'g'ri talaffuz, intonatsiya va tabiiy nutq uslubi bilan o'rganadi. O'qituvchilarga savol berish, qisqa suhbatlar qilish, fikr almashish kabi mashqlar talabalarni arab tilida tabiiy gapirishga o'rgatadi. Bu esa tilni faqat dars kitoblari orqali emas, balki haqiqiy muloqot jarayonida mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, kod almashinuvi muammosini nazorat qilinadigan strategiya orqali qo'llash, o'quvchilarning ona tili va arab tilidagi bilimlarini samarali integratsiyalash imkonini beradi. Bu yondashuv tilni tez va aniq ifodalashga yordam beradi, shu bilan birga, grammatika va morfologiya bo'yicha chuqur bilimlarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Arablarga arab tilini o'rgatgan alloma. Oliy Mahad. Oliymahad.uz. 2024.
<https://oliymahad.uz/35740>
2. Arab tili grammatikasi. (2023). Buxoro Davlat Universiteti.
work.buxdu.uz.https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13618_1_3832A559BDC9D2949A9A0AEEAA603BDAEBE27A15.pdf
3. Grammatika. Grammatik ma'no va grammatik shakl. Grammatik kategoriya. 2022. Arxiv.uz.
4. Xoliqulov, I. B., & Qosimova, Y. M. Chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va uning ta'siri // "Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 1(12), 244–248. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyasi. 2024.
<https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/515>
5. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING "RISALATUN FIN-NAHV" ASARIDA TIL O'QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
6. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ-ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
7. MUTARRIZIYNING "RISOLATUN FIN NAHV" ASARI MO'JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88.
<https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
8. Jo'Rayeva, M. (2025). XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR:(ARAB TILI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 222-224.
9. TOSHMATOVA, S. (2025). Usage of Cooperative Exercises in Developing Writing Skills of EFL Students. *SHOKH LIBRARY*.

10. Mahmudova, S. (2024). SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.1. 1), 288-292.
11. Хамракулова, Ш. А. (2025, November). ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАМКАХ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ. In *Conferences* (Vol. 1, No. 9, pp. 507-510).
12. Qo‘chqarovich, K. U. (2026). REY BREDBERINING “ERTAGA QIYOMAT” HIKOYASIDA APOKALIPSIS VA BADIY PSIXOLOGIZM. “*Alfraganus*” *xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(4), 11-21.
13. Qo‘chqarovich, K. U. (2025, October). REY BREDBERI VA HOJIAKBAR SHAYXOV IJODIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 461-464).
14. Azimboyevna, Y. S. (2026). Edgar Allan Poe va uning adabiy uslubining zamonaviy amerika ilmiy-fantastik adabiyotiga ta’siri. *Alfraganus*” *Xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(6), 56-66.
15. Azimboyevna, Y. S. (2025). Literary Interpretation Of Motifs In Ray Bradbury’s Works. *International Journal Of Advanced Research In Education, Technology And Management*, 4(3), 43-51.
16. TURAEVA, B., & KUCHIMOV, U. POETIC MODELS OF THE CONCEPT “LITERARY TIME”.
17. Azimboyevna, Y. S. (2024). Jahon va o‘zbek fantastik asarlarida takroriy motiv tushunchasi va uning badiiy talqini. *Research Focus*, 3(Special Issue 1), 19-23.
18. Raxmonov, A. K. (2024). *Mutarriziy va uning “Nahv risolasi”*. In *Sharq tillari tadqiqi va ta’limi muammolari: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari* (pp. 211–214). Oriental University.
19. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahw” asarida grammatik kategoriya talqini va uning o‘zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida: Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari* (pp. 136–139). Alfraganus University.